



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



CHUSEOK BAYRAMINING KELIB CHIQISHI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI

Bahodirova Dinarabonu Shavkatxon qizi

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti 1 - bosqich talabasi

bahodirovadinora4@gmail.com

Yunusova Gulshoda Dilshadovna

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Janubiy Koreyaning eng muhim milliy bayramlaridan biri hisoblangan Chuseok bayramining kelib chiqish tarixi, shakllanish jarayoni hamda uning asosiy tarkibiy elementlari tahlil qilinadi. Unda bayramning agrar turmush tarzi, oy taqvimi va qadimiy afsonalar bilan bog‘liqligi, shuningdek, ajdodlarni xotirlash marosimlari, an‘anaviy taomlar va xalq raqslari kabi madaniy unsurlarining ma‘naviy-ijtimoiy ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Chuseok (추석), Hangawi (한가위), Charye (차례), Songmyo (성묘), Songpyeon (송편), Toranguk (토란국), Nonak (논약), Chultarigi (출타리기), Ganggangsullae (강강술래)*

Bilamizki, insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan boshlab, urf-odat, marosim va bayramlar ijtimoiy hayotning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Jamiyat ichidagi birdamlik, identitet va avlodlar davomiyligini mustahkamlash maqsadida, uzoq yillar davomida insonlar o‘z tarixi, dini, qadriyatlarini, ijtimoiy holat va ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘zlari uchun turli marosim va bayramlarni yaratadi va nishonlaydi. Antropologik tadqiqotlarga yuzlansak, bayramlar tarixan tabiat tsikllari, tabiiy hodisalar va ayniqsa agrar jamiyatlarda hosil, yig‘im-terim bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Shu tufayli, hosil bayrami bilan bog‘liq marosimlarni dunyo bo‘ylab ko‘pgina davlatlar madaniyatida uchratish mumkin. Masalan, Xitoyda O‘rta Kuz bayrami, Yaponiyada – Tsukimi, Yevropa mamlakatlarida – Harvest Festival va boshqalar. Tarixiy antropologik jarayonlar asosida koreys xalqi ham o‘z agrar tarixidan kelib chiqqan holda milliy Chuseok bayramini shakllantirgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Chuseokning dastlabki ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi, uning rasmiy shakli esa Silla davridan boshlangan bo‘lib, dastlab yig‘im-terim marosimi, ajdodlarni e‘zozlash va jamoaviy birdamlikni mustahkamlash kabi bir qator funksiyalarga ega bo‘lgan. Bugungi kunda koreys madaniyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Chuseok bayrami rituallari qadimiy dunyoqarash va zamonaviy urf-odat va an‘analarni uyg unligini aks ettiradi.

Chuseok bayramining kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, ushbu bayram miloddan avvalgi davrlarga borib taqalishini ko‘rish mumkin. “Afsonaga ko‘ra, qadimgi Silla qirolligi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



davrida bir podshoh ikkita jamoa o'rtasida bir oy davom etadigan to'quvchilik tanlovini boshlab bergan. O'rtaga qo'yilgan shartga ko'ra, belgilangan muddat ichida eng ko'p mato to'qigan jamoa g'olib deb topilgan, yutqazgan jamoa esa g'oliblarga taomlar, ichimliklar va turli sovg'alar bilan mehmondorchilik qilgan. Shu tariqa qariyb ikki ming yil avval minnatdorchilik va hosil bayrami an'anasi shakllangan deb hisoblanadi" [1]. Chuseok bayramining kelib chiqishi haqidagi ushbu afsona va tarixiy qarashlar koreys jamiyatida qadimdan shakllangan jamoaviy mehnat, o'zaro mas'uliyat va minnatdorchilik tushunchalarini yaqqol aks ettiradi. To'quvchilik musobaqasi haqidagi rivoyat mehnatni qadrlash bilan birga, g'olib va mag'lub o'rtasida hurmat va birdamlikni mustahkamlovchi an'ana sifatida talqin etilishi mumkin.

"Ba'zi tadqiqotchilar Chuseokning kelib chiqishini Koreya tarixidagi agrar turmush tarzi bilan ham bog'laydilar. Qadimda koreyslar qishloq xo'jaligi hayoti va oy tsikllari bilan chambarchas bog'liq holda yashagan bo'lib, ular ajdodlarga marosimlar o'tkazish, shukronalik bildirish va hosil oyini nishonlashni keng tarqalgan odat sifatida bajarganlar" [1]. Shuningdek, Chuseokning agrar turmush tarzi va oy sikllari bilan bog'lanishi koreys xalqining tabiat bilan uyg'un yashashga intilganini ko'rsatadi. Bu bayram ajdodlarni yod etish va hosil uchun shukronalik bildirish orqali milliy o'zlik va madaniy merosni avloddan avlodga uzatishda muhim o'rin tutadi.

Chuseok bayrami Janubiy Koraya har yili eng keng nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiradi. "Kabae atamasi qadimiy koreys tilidagi "o'rta" ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan bo'lib, bu yerda har ikki belgining talaffuzi asosida yozilgan. Bugungi kunda ushbu sana odatda Chuseok deb ataladi. Kabae so'zi koreys manbalarida birinchi marta Samguk-sagi asarida qayd etilgan va zamonaviy koreys tilida kavi shakliga rivojlangan. Ko'pincha bu so'z han ("katta") bilan birikib ishlatiladi va natijada han'gawi ya'ni "kuzning o'rtasi" degan ma'noni bildiradi" [6]. "Chuseok oy taqvimi bo'yicha sakkizinchi oyning 15-kunida nishonlanadi. Ushbu bayram "Hangavi" deb ham ataladi. "Han" so'zi "katta", "gavi" esa "o'rta", "markaz" ma'nosini bildiradi. Shuning uchun Hangavi atamasi oy taqvimidagi sakkizinchi oy o'rtasidagi "ulug' kun" degan ma'noni anglatadi" [2]. Chuseokning oy taqvimiga ko'ra sakkizinchi oyning o'rtasida nishonlanishi va "Hangavi" deb atalishi bu bayramning koreys xalqi uchun muhim va muqaddas kun ekanini ko'rsatadi. Atamaning "katta" va "markaz" ma'nolarini anglatuvchi qismlari Chuseokni yilning eng ahamiyatli davrlaridan biri sifatida talqin etishga imkon beradi. Shu bois, bu bayram nafaqat vaqt jihatidan, balki ma'naviy jihatdan ham alohida qadrlanadi.

"Chuseok kuni ertalab oilaning barcha a'zolari ajdodlarni xotirlash uchun o'tkaziladigan "charye" deb ataluvchi xotira marosimida ishtirok etish maqsadida oilaning bosh uyida (katta uyda) to'planadilar. Rasmiy charye marosimlari yiliga ikki marta – Sollal va Chuseok bayramlarida o'tkaziladi. Chuseokdagi charye marosimi uchun yangi yig'ilgan guruch, an'anaviy spirtli ichimliklar hamda yarim oy shaklidagi guruchli pishiriq – songpyeon tayyorlanadi va ajdodlarga taqdim etiladi. Marosim tugagach, oilaning barcha a'zolari



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



birgalikda dasturxon atrofida o‘tirib, tayyorlangan taomlardan birga bahramand bo‘ladilar. Bu an‘ana “eumbok” deb ataladi” [3].

Chuseok bayramining ajdodlar xotirasiga hurmat ko‘rsatish va e‘zozlash maqsadida o‘tkaziladigan bir qator marosimlar ham mavjud. Bulardan eng muhimi “songmyo” marosimi hisoblanadi. “Chuseok bayrami munosabati bilan ajdodlar qabristonlarini ziyorat qilish marosimi “songmyo” deb ataladi. Ushbu tashrif davomida oila a‘zolari yoz mavsumida qabristonlar atrofida o‘tib chiqqan begona o‘tlarni tozalaydilar. Bu amaliyot “beolcho” nomi bilan tanilgan. Mazkur urf-odat koreys jamiyatida oila oldidagi burchni ado etish, ajdodlarga sadoqat va chuqur hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Chuseok bayramidan taxminan bir oy avval, odatda dam olish kunlari, ko‘plab koreys oilalari ajdodlar qabristonlarini ziyorat qilish uchun yo‘lga chiqadilar. Shu sababli mamlakat avtomobil yo‘llarida kuchli tirbandliklar yuzaga keladi. Bayram kunining o‘zida esa qabristonlar yana bir bor ziyorat qilinadi” [5].

Chuseok bayramida turli xil milliy taomlar tayyorlanadi va bu bayramning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Har bir taom o‘z ma‘no – mazmuniga ega bo‘lib, oila a‘zolari bilan birgalikda tayyorlanadi va birgalikda iste‘mol qilinadi. “Chuseok bayramining eng mashhur taomlaridan biri – songpyeon. Ushbu an‘anaviy koreys guruchli pishirig‘i guruch unidan tayyorlanib, ichiga kunjut urug‘i, qizil loviya, boshqa loviya turlari, kashtan va shunga o‘xshash mahsulotlar solinadi. Bu yarim oy shaklidagi guruchli pishiriqlar qarag‘ay ignalari bilan birga bug‘da pishiriladi, bu esa ularga yanada o‘ziga xos hid va ta‘m beradi. Oila a‘zolari songpyeoni odatda Chuseokdan bir kun oldin tayyorlashadi va uning shakli oy siklidagi yarim oyga o‘xshaydi. Koreyada keng tarqalgan e‘tiqodga ko‘ra, chiroyli shaklda songpyeon tayyorlagan ayol kelajakda go‘zal farzand ko‘radi yoki uning turmushida omad va farovonlik bo‘ladi, deb hisoblanadi” [1].

Navbatdagi yana bir e‘tiborga molik taomlardan biri “Toranguk” hisoblanadi. “Toranguk sho‘rvasi Chuseok bayramida ajdodlarni xotirlash marosimlarida tayyorlanishi lozim bo‘lgan taomdir. Ushbu sho‘rva ikki sababga ko‘ra mashhur: birinchidan, xalq orasida aytilishicha, u inson salomatligi uchun foydali; ikkinchidan, toranguk sho‘rvasi ma‘lum ma‘noda ro‘za vazifasini bajaradi va ta‘m sezish qobiliyatini oshirishga yordam beradi, deb hisoblanadi” [2]. Toranguk sho‘rvasining Chuseok bayramida ajdodlarni xotirlash marosimlarida tayyorlanishi koreys xalqining taom orqali ham ma‘naviy qadriyatlarni ifoda etishini ko‘rsatadi. Ushbu sho‘rvaning sog‘liq uchun foydali deb hisoblanishi va ro‘za vazifasini bajarishi unga nafaqat ovqat, balki ramziy ma‘no ham yuklaydi. Bu esa Chuseok paytida tanani va ruhni poklash g‘oyasi muhim o‘rin tutishini anglatadi.

Chuseok farovonlik va mo‘l-ko‘lchilik davrida nishonlangani sababli, bu bayram paytida inson ruhida quvonch, xursandchilik va ma‘lum darajadagi ma‘naviy erkinlik hissi hukm suradi. Shu bois odamlar vaqtlarini turli o‘yin-kulgi va an‘anaviy mashg‘ulotlar bilan o‘tkazadilar. Bayramda odamlar bir joyga yig‘ilib, baraban sadolari ostida qo‘shiq aytib raqsga tushishlari an‘ana tusiga kirgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Chuseok bayramini tarkibiy elementlari qatoriga *Nonak* va *Chultarigi* marosimlarini ham kirtishimiz mumkin. “*Nonak*, ushbu an’ana doirasida dehqonlar birlashib, yil davomida qishloq xo‘jaligi ishlari bilan samarali shug‘ullangan, yaxshi sharoitga ega va badavlat xonadonlarni aylanib chiqishadi. Mazkur xonadonlar dehqonlarni spirtli ichimliklar va turli taomlar bilan mehmon qilishadi. Buning sababi, bir tomondan, mo‘l hosil tufayli taomlar yetarli bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, insoniy saxovat va ezgulik qilish istagining kuchayishidir. Odatda 3–4 ta shunday xonadonga tashrif buyurish butun kun davom etadi. *Chultarigi* – Chuseok davrida o‘tkaziladigan an’anaviy xalq o‘yini bo‘lib, unda qishloq aholisi bir joyga to‘planib, arqon tortish musobaqasida ishtirok etadi. Ayrim hollarda bir yoki bir nechta qishloq yagona jamoa sifatida qatnashsa, ba’zan jamoalar erkaklar va ayollar guruhlariga bo‘linadi. Arqonning o‘lchami hamda ishtirokchilar soni qat’iy belgilanmagan bo‘lib, guruhlar bir necha o‘n kishidan ming nafargacha yetishi mumkin. Ba’zi hollarda arqon shu qadar katta bo‘ladiki, unga chiqib olgan odamning oyoqlari yerga yetmay qoladi” [2].

Chultarigi o‘yini kuch sinovigina bo‘lib qolmay, uning qishloq xo‘jaligida ramziy ma’noga ega, ya’ni go‘liblik – serhosillik, mag‘lubiyat esa – yomon hosilli yilning belgisi sifatida talqin etilishi ham mumkin.

“Chuseok bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan an’anaviy marosimlardan yana biri – *Ganggangsullae* bo‘lib, u asosan Jeollanam-do mintaqasida keng tarqalgan doira shaklidagi xalq raqsidir. Ushbu raqsning kelib chiqishi haqida ikki xil tarixiy rivoyat mavjud bo‘lsa-da, har ikkala talqinda ham ayollarning an’anaviy koreys kiyimi – hanbok kiygan holda to‘lin oy nuri ostida yig‘ilib raqsga tushishi asosiy unsur sifatida tasvirlanadi. *Ganggangsullae* 1965-yil 15-fevralda Cultural Heritage Administration tomonidan 8-raqamli Muhim nomoddiy madaniy meros sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, 2009-yil 1-oktabrda ushbu raqs “UNESCO”ning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan” [4]. *Ganggangsullae* raqsi Chuseok bayramining madaniy va ma’naviy mazmunini yanada boyitadigan muhim an’anaviy marosim hisoblanadi. Ayollarning hanbok kiygan holda to‘lin oy ostida doira shaklida raqsga tushishi jamoaviylik, birlik va tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyalarini ifodalaydi. Ushbu raqsning milliy va xalqaro darajada e’tirof etilishi esa *Ganggangsullae* nafaqat Koreya madaniy merosi, balki butun insoniyat uchun qadrlı bo‘lgan an’ana ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Chuseok bayrami koreys xalqining qadimiy tarixiy tajribasi, agrar turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim milliy bayramdir. Uning kelib chiqishi haqidagi afsonalar va tarixiy qarashlar jamoaviy mehnat, shukronalik va ajdodlarga hurmat g‘oyalarini aks ettiradi. Chuseok tarkibidagi an’anaviy taomlar, marosimlar va xalq raqslari ushbu bayramning madaniy mazmunini boyitib, koreys milliy o‘zligini saqlash va avloddan avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chuseok in Korea All about Korean Thanksgiving.
<https://www.90daykorean.com/chuseok-in-korea/>
2. Kim Youngsuk. Korean traditional holiday «Chusok» // The Journal of Direction and Development of Korean Studies in Russia. 2020. Vol. 1, № 1. P. 33–36.
3. Korea Tourism Organization. (n.d.). Chuseok: Korean Thanksgiving Day. Visit Korea. <https://english.visitkorea.or.kr>
4. On Chusok- Ganggangsulle <https://samedi.livejournal.com/349217.html>
5. Pyeon Chib Bu. Korean National Holiday – Chuseok //Recent Trends of Law & Regulation in Korea. 2014. Vol.16. P. 40 – 41.
6. Toae Hong Sök-mo Record of the Seasonal Customs of Korea. – University of Hawai‘i Press/Honolulu, 2022. – 214 p.

